

GIYOHVAND MODDALAR VA ULARNING YOSHLARGA TA'SIRI

Tashpulatova Ma'rifat Eshmurodovna

Jarqo'rg'on tumanidagi 47-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Shamayeva Muxabbat Baratovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti

Annotatsiya: Barchamizga malumki, giyohvand moddalarni qabul qila boshlagan insonning, giyohvand modda iste'moli uning doimiy odatiga aylanadi. Bu illatga o'rgangan inson mehnatga yaroqsiz bo'lib qoladi. Natijada u jinoyatga qo'l urishga majbur bo'ladi. Ya'ni navbatdagi giyohvandlik vositasini qabul qilish maqsadida o'g'irlikni o'z uyi – oilasidan boshlaydi. Giyohvandlik va giyohvandlikning yosh avlod tarbiyasiga, insoniyat kelajagiga katta zarar yetkazishi butun jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Shuning uchun ham bu falokatga qarshi kurash hozirgi kunda yer yuzidagi global muammolardan biriga aylandi. Asr vabosiga qarshi kurashish barchamizning ishimiz. O'zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir fuqaro bu harakatdan chetga chiqmasligi kerak. Bu jarayon umummilliy kurashga aylanishi kerak. Shundagina minglab yoshlarning kelajagini, oilalarimiz tinchligini asrab avaylaymiz.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, yoshlar, eyforiya, abstinent, zaharli modda, tolerantlik, heroin.

Giyohvand modda-opiy mutaxassislarni aytishlaricha, Hindistondan Sharqiy, Janubiy Osiyoga kirib kelgan. Keyinchalik 50-60 yillarda Yevropada, Osiyo mamlakatlariga tarqalgan. 80-yillarga kelib yer sayyorasida giyohvandlik ancha kuchaygan. O'rta Osiyo, Qozog'iston, Kavkaz, Janubiy Ukraina, Belorusiya va Uzoq Sharqda yovvoyi ko'knor va kanop o'simliklari ko'p o'sgan. Shu sababli bu joylarda gashish va sun'iyopiy (heroin) preparatlarini iste'mol qilish rivojlangan. Keyingi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarida giyohvand moddalarni iste'mol qilish ko'paygan. Afg'oniston narkotik moddalarni yetishtirish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinda turadi. Narkotik moddani birinchi marta totib ko'rgandayoq odam o'zning sog'lom hayotiga nuqta qo'yishi mumkin, - deyishadi mutaxassislar.



Davlatimiz sog‘lom turmush tarzini hosil qilish uchun yoshlarni ehtiyot qilishga e‘tibor berib turli xil jaholatparastliklardan saqlash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1987 yil 7-dekabrdagi qaroriga asosan BMT bosh Assambeliyasi tomonidan har yili “26 iyun Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni” deb e‘lon qilingan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Biz narkotik moddalar tarqatilishining halokatli oqibatlarini sergaklik bilan baholagan holda, bu illatga qarshi kurashda sa‘y-harakatlarimizni birlashtirishimiz zarur. O‘zbekiston barcha manfaatdor mamlakatlar va tashkilotlar bilan bu borada hamkorlik qilishga tayyor”, - degan edilar. 1993 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish va jinoyatchilikni oldini olish Boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi Toshkent shahrida ochilgan u ayni kunlarda ham faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi 1995 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961 yildagi “Narkotik moddalar to‘g‘risidagi” Konvensiyasiga, 1971 yildagi “Psixotrop vositalar to‘g‘risidagi” va 1988 yildagi “Narkotik moddalar va psixotrop vositalarning g‘ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi” Konvensiyalariga a‘zo bo‘lib kirgan. 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha Milliy axborot – tahlil Markazi tashkil etildi va u hozir faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 1999 yilda esa “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan. Giyohvandlikka qarshi kurashish bo‘yicha bir necha me‘yoriy hujjatlar qabul qilinganiga qaramasdan bu illat nima uchun borgan sari ko‘payib bormoqda.

Giyohvandlik narkomaniya, bangilik —narkotik moddalarga o‘rganib qolish, ruju qilish, aniqrog‘i tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki surunkasiga iste‘mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati.

Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o‘zgarishiga sabab bo‘ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlikda o‘zini to‘xtatib bo‘lmaydigan darajada giyohvand moddalarni iste‘mol qilish mayli paydo bo‘ladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bog‘liqlik ortib boradi. Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab xushnudlik, dimog‘chog‘lik (qarang Eyforiya), xotirjamlik hissini uyg‘otib, kayf qildiradi, keyin bora-bora bu kasallikka aylanadi. Ayrim hollarda vrach buyurgan va bemorning ruhi hamda kayfiyatini oshirish xususiyatiga ega bo‘lgan






dorilarni uzoq vaqt va noto'g'ri qabul qilish; og'riq, uyqusizlik va boshqa dardlardan qutilish maqsadida dori miqdori (dozasi)ni oshirib borish; darddan tuzalib doriga unchalik ehtiyoj bo'lmasa ham, uni qabul qilaverish natijasida dorining narkotik ta'siri va miqdori orta borib, pirovardida giyohvand moddaga moyillik kuchayib, u humor qiladigan bo'lib qoladi. Ikkinchi hol ongli ravishda kayf qilish maqsadida giyohvand moddalarga o'rganishdir.

Giyohvandlikka, odatda, irodasi kuchsiz, o'zini tiya olmaydigan, o'tkir sezgilarni o'zida sinab ko'rishga qiziquvchan, ruhan zaif va o'ta xudbin o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmagan, o'zgalarga bo'ysunuvchi kishilar beriluvchan bo'ladi. Xalqimizda shunday naql bor "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi". Shunday ekan. Yoshlar tarbiyasidagi nuqson va kamchiliklar, giyohvand moddalarni iste'mol qilib yuruvchi katta yoshdagilarga taqlid va havas, giyohvand moddalarga bo'lgan qiziqish, ota-ona bolaning ehtiyojidan ko'proq miqdorda unga pul mablag'larini berishi, berilatgan mablag'larning nima uchun sarflanyotganligi bilan qiziqmaslik, atrofidagi insonlar, oiladagi noxush sharoit (ota-onaning ichkilikboz yoki giyohvand bo'lishi) oiladagi shaxslararo munosabatning yaxshi emasligi, ota-onaning farzand tarbiyasiga vaqt ajratmasligi oqibatda farzand ota-ona e'tiboridan, mehridan chekkada qolishi, hamda giyohvand moddalarning oson topilishi yoki qo'l ostida bo'lishi ham giyohvandlikka sabab bo'lishi mumkin.

Giyohvandlikka muhtalo bo'lganlarda xastalik borgan sari kuchaya borib, odatda, kutilmagan yomon oqibatlarga olib keladi. Giyohvandlik eyforiyasida, ya'ni kayfi chog'likda 2 bosqich kuzatiladi: qisqa muddatli —1-5 daqiqa davom etadigan o'tkir hissiyotli bosqich (haqiqiy eyforiya) va uzoq (1—3 soat) cho'ziladigan bo'shshish, tinchlanish davri. Bu bosqichlarning qisqa yoki uzoq bo'lishi qanday giyohvand modda qabul qilinganiga va miqdoriga bog'liq. Giyohvandlikning hamma turi ham o'z rivojida giyohvand moddalarga o'rganib qolish yo'li bilan Giyohvandlik sindromining shakllanishiga olib keladi.

Bu sindromning rivojlanishida ham 3 bosqich farqlanadi:

- 1) giyohvand moddaga nisbatan organizm reaktivligining o'zgarishi va ruhiy bog'lanishning paydo bo'lishi;
- 2) xumor (abstinent) sindromi ko'rinishida jismoniy bog'lanishning yuzaga kelishi;





3) organizm barcha sistemalarining zaiflashishi (tolerantlikning pasayishi, ya'ni giyohvand moddalarning avvalgi miqdorini ko'tara olmaslik, xumorning surunkali davom etishi va ayrim hollarda poli narkomaniyaning vujudga kelishi).

Giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlar asosan shifoxona (statsionar) sharoitida 2—4 oygacha davolanib, 4—5 yilgacha ambulatoriya kuzatuv va hisobida bo'ladilar. O'zbekistonda giyohvand vositalarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullangan kishilar jinoiy javobgarlikka tortiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishganining dastlabki kunlaridan boshlab, narkotik moddalarning g'ayriqonuniy aylanishi va uning iste'moliga qarshi kurash boshlandi. Mamlakatimizning tinchligi va xavfsizligiga tahdid solayotgan bir qator ichki va tashqi omillarga: kashandalik, odam savdosi, diniy ekstremizm, giyohvandlik va ichkilikbozliklar kiradi.

Giyohvandlik – narkotik moddalar jumlasiga kiruvchi dorilar yoki boshqa moddalarni iste'mol qilish natijasida yuzaga keladigan kasallikdir.

Giyohvandlik – inson sog'lig'iga xavf soluvchi illat bo'lib, kishi organizmini ta'sirchan moddalarga o'rganib qolishini anglatadi.

Giyohvandlik – insonning giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga mukkasidan ketish bilan bog'liq hastalikdir.

Giyohvand – forscha - tojikcha so'zdan olingan bo'lib – nasha, qoradori, ko'knori va shu kabi narkotiklarni iste'mol qilishga odatlangan odam; bangi, nashavand, ko'knori - deyiladi.

Giyohvandlik - sigaret chekish, ularni hidlashdan boshlanadi. Agar ota-onalar farzandiga sigaret, nos sotib olib kelib berishni buyursalar, ular ota-onalaridan, yashirib sigaret, nos chekishni, hidlashni o'rganadilar. Giyohvandlik ota-onalarning e'tiborsizligi, loqaydligi uzoqni o'ylamay ish qilishi oqibatida kelib chiqadi. Birgina misol: xavfli o'smani-rakni keltirib chiqaruvchi moddaning 45 foizi sigareta orqali organizmga o'tar ekan.

Giyohvandlik – inson salomatligi uchun o'ta xavfli hisoblanadi. Mutaxassislarni fikricha ba'zi hollarda giyohvandlikni belgisi ko'zga tashlanmasligi xam mumkin. Narkotik moddaga o'rgangan organizmda fizologik o'zgarishlar yuz beradi. Narkotik moddaga tashnalik vujudga keladi, usiz tura olmaydigan holat yuz beradi, og'ir kasalliklar paydo bo'ladi. Yurak muskullari jarohatlanib surunkali yurak yetishmovchiligi boshlanadi. Mutaxassis shifokorlarni aytishlaricha gastrit, oshqozon yarasi, jigar serrozi, pnevmaniya va plevrit kasalliklari paydo bo'ladi. Giyohvandlik





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-3

davolab bo'lmaydigan kasallik. Giyohvandlikka berilgan fuqaroni oxir-oqibat faqat o'lim kutadi. Shuning uchun giyohvandlikni davosi yo'q vaboga tenglashtiriladi. Ko'chada, to'y-marakada giyohvandni turli belgilaridan ham bilsa bo'ladi. Giyohvand, avvalo, rangi uniqqan, sal sarg'aygan, rangi chiqmaydigan, havo issiq bo'lishiga qaramay uzun yengli kiyim kiyishi, qo'l panjasining shishi, tishlarining qorayishi va sarg'ayishi, sinishi, muomalasining g'alatiligi, spirtni hidi kelmay turib sarxush holatda, o'zicha kulib, xursand bo'lib yurishi, serharakat bo'lmasligi, tez ta'sirga tushishi, tajanglik, uyidan narsalar va pullarni yo'qolishi kabilardan ham giyohvandni bilib olsa bo'ladi.

O'smirlar orasida giyohvandlikning kelib chiqish sabablari va oqibatlari.

Zamonaviy dunyo nafaqat ko'plab ijobiy tomonlarga ega, balki salbiy hodisalarga ham daxli yo'qdek go'yoki. Biroq o'smirlar orasida giyohvand moddalarni iste'mol qilish hollari mavjud. Misol uchun, Rossiyada giyohvandlikning ko'chasiga kirib qolgan o'smirlar soni mamlakat aholisining 1,7 foizini tashkil qiladi. Bolaning giyohvandlikka bo'lgan munosabati ko'plab omillarga bog'liq. Har kuni diskotekalarda, ko'plab filmlarda, qo'shiqlarda va maktabda giyohvand moddalar haqida eshitadilar. Ko'pincha giyohvandlik va giyohvandlik kabi o'smirlar qiziqishlarini qondirishga intilgan shaxslar orasida mashhurdirlar, ammo bu kasbning oqibatlari haqida hech narsa bilishmaydi. Bundan tashqari, giyohvandlik – irodasi zaif yoshlar orasida keng tarqalgan. Giyohvandlik vositalari sotishni o'ziga kasb qilgalar, oilasida moddiy ta'minoti yuqori bo'lgan yoshlarni jalb qilib, ular hisobidan boylik ortirishadi. Ammo bu zaxri qotilni istemol qilayotgan yoshlar salomatligini yo'qotishi, o'lim bilan tugashi yoki ulardan nogiron farzandlar tug'ilishi mumkin.


O'smirlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olish

Afsuski, yoshlar ushbu turdagi (noqonuniy) moddani olish uchun turli xil manbalar mavjud. Giyohvand moddalarni ushbu manbalarini bilish bolalarini giyohvand moddalarni noqonuniy iste'mol qilishdan himoya qilishni istaydigan va giyohvandlik xavfini cheklaydigan ota-onalar uchun muhimdir.

Giyohvandlik dunyoda ommaviy xarakterga ega bo'lganligi uchun, profilaktika uni yengishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Eng yaxshi natijalarni olish uchun siz maksimal xususiyatlardan foydalanishingiz kerak:

Farzandingizning ta'lim- tarbiyasida oilaning roli kuchaytirilishi kerak;

Ota-onalar farzandlarining yosh psixologiyasiga sezgir bo'lishi kerak;





Maktablar va universitetlarda tegishli kirish darslari o‘tkazilishi kerak;
Televizion ekranlardan siz bema’ni va nosog‘lom turmush targ‘ibotiga jalb qilingan barcha film va dasturlarni olib tashlashingiz va ularning telefonlarini vaqti - vaqti bilan tekshirib turishingiz kerak.

Farzandingizning do‘stlari kimlar ekanligiga e’tibor berish kerak.

Farzandingizning bo‘sh vaqtdan unimli foydalanishi uchun, farzandingizning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, biror kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini ortishi uchun, sharoitlar yaratishingiz turli xil fan va sport to‘garaklariga jalb qilinishini ta’minlashingiz kerak.

Farzandingiz bilan do‘stona suhbatlar qurishingiz, uning orzu, istak va xohishlari bilan qiziqishingiz kerak. Shundagina, farzandingizning sizga bo‘lgan merhri, hayotga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” T.: 2008 y.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Erkin va farovon , demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi . Toshkent: O‘zbekiston , 2016 – 56 b.
3. Sh.M . Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekiston” 2017 – 17, 448 b.
4. X.Ibragimova, Sh.Abdullayeva “Pedagogika nazariyasi” Toshkent-2008. 269bet.
5. Nodira Egamberdiya “Ijtimoiy pedagogika” Toshkent-2009. 77-15bet.7
6. T.G. Kobyakova, O.A. Smerdov “Giyohvandlik va alkogolga qaramlikning birlamchi profilaktikasi bo‘yicha o‘smirlar ko‘ngillilar xizmatini tashkil qilish nazariyasi va amaliyoti”.
7. S. Belogurov "Giyohvandlik va giyohvandlik haqida mashhur".
8. V. V. Dunaevskiy V.D.Stajjkin "Giyohvandlik va giyohvandlik".
9. Timoti Dimoff Stiv Karper "Bolalarni giyohvandlikdan qanday himoya qilish kerak"

INTERNET SAYTLARI

1. Ziyonet.uz
2. Arxiv.uz
3. Lex.uz
4. Wikipedia

